

## XX ASR JAHON SHE'RIYATIDA BAHOR MOTIVINING POETIK SEMANTIKASI

Nuraliyeva Ozoda Narbayevna,

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali v.b.dotsenti

[ozodanuraliyeva1818@gmail.com](mailto:ozodanuraliyeva1818@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada she'riyatda klematologik birliklar haqida ma'lumot berilgan. Darhaqiqat, adabiyotda yil fasllari inson ruhiyatini ifodalashi bilan birga u bilan uzviy tarzda voqelanadi. Maqolada aynan o'zbek, rus, ingliz she'riyatida bahor motivining semantikasi tahlil qilinib, munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** motiv, klematologik birlik, ijtimoiy hayot, lirika, simbolizm, poetik tahlil, semantik tahlil, an'ana, mentalitet.

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о клематологических единицах в поэзии. Действительно, в литературе времена года отличаются тем, что выражают человеческую психику и неразрывно с ней связаны. В статье анализируется и выражается семантика мотива весны в узбекской, русской и английской поэзии.

**Ключевые слова:** мотив, клематологическая единица, социальная жизнь, лирика, символизм, поэтический анализ, семантический анализ, традиция, менталитет.

**Annotation.** This article provides information about clematological units in poetry. Indeed, in literature, the seasons of the year are distinguished by the fact that they express the human psyche and are inextricably intertwined with it. The article analyzes and expresses the semantics of the spring motif in Uzbek, Russian, and English poetry.

**Keywords:** motif, clematological unit, social life, lyrics, symbolism, poetic analysis, semantic analysis, tradition, mentality.

**Kirish.** XX asr o'rtalariga kelib, ijtimoiy hayotga bo'lgan qarashlar tubdan o'zgardi. Bu esa adabiyotda ham o'z aksini topa boshladi. Xuddi shunday xususiyatni Rauf Parfi, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Asqad Muxtor singari ijodkorlar asarlarida kuzatish mumkin bo'ldi. XX asrning 70-80-yillarida o'zbek adabiyoti yangi avlod bilan boyidi. Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva, Xurshid Davron she'riyati o'zbek adabiyotiga yangi nafasni taqdim etdi. XX asr oxirlarida kirib kilgan Sirojiddin Sayyid, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Iqbol Mirzo kabi shoirlar milliy o'zlikni targ'ib qilishga harakat qilishdi. Umuman olganda, bu davrda ko'plab ijodkorlar she'riyat namunalarini yaratishdiki, ular orqali o'zbek she'riyati yangi ufqlarni zabt etdi.

XX asr rus she'riyati xususida so'z ketganda bu adabiyotda ham yangi qarashlarni anglash mumkin bo'ladi. Rus adabiyoti ham XX asrni bir necha davrga ajratishdi. Bu davrda ijod etgan adiblarning asarlari hatto Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Biroq XX asr boshlarida xuddi o'zbek adabiyoti singari kuzatilgan o'zgarishlar 30-yillarga kelib, o'zining qaynoq taftini yo'qotdi. 1920-yillarda rus adabiyotida shoirlar modernizm va avangard vositalari orqali yaqin o'tmish voqealari haqida yangi epos yaratishga intiladilar; inqilob haqidagi she'riy epos uchun V.Mayakovskiy, S.Yesenin va konstruktivist S.Selvinskiy kabi shoirlar yangi shakllar qidiradilar [7]. Bu davrda B.Pasternak, A.Beliy,

A.Pilnyak va R.Remizov singari ijodkorlar rus adabiyotidagi qarshlarni tubdan o'zgartiradi [8,4].

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** 60-70-yillar adabiyoti ham o'zbek adabiyoti singari yangi ovozlari va yangi ruhiyatni olib kirdi. R.Rojdestvenskiy, A.Voznesenskiy, va Ye.Yevtushenko, V.Sosnora, B.Axmadulina singari ijodkorlarning she'riyati fikrimizga misol bo'la oladi [9,368].

Ikkinchi marotaba esgan qatag'on shamoli esa boshlashi bilan ko'pgina ijodkorlar Rossiyani tark etadi. Ular Yevropa va Amerika qitalarida joylashib, o'sha makonlarda o'z ijodini davom ettirishadi. I.Brodskiy, V.Nekrasov, A.Soljnititsin singari shoirlar butun umr Rossiyani tark etishga majbur bo'lishadi [4]. K.Uksonova, L.Chukovskaya, V.Sharlamov singari ijodkorlar esa Rossiyani tark etish daqiqalarida ularning joniga qasd qilishadi [5].

XX asr oxirlarida rus adabiyotida modernistik adabiyotning yangi sahifalari kuzatildi. Natijada bu davr D.Prigov, L.Rubinshteyn, A.Alchuk, T.Kibirov, G.Sapgir, I.Xolin, V.Nekrasov singari ijodkorlarni taqdim etdi [6,264-266].

Ingliz adabiyoti haqida so'z ketganda ingliz shoirlaridan Shon O'Brayen, L.Berri, L.Grinlou, S.Dagdeyl; shotland shoirlari J.Byornsayd va J.O.Morgan; irland shoirlari M.Longli, Sh.Morrissi, P.Malduun, F.Ormsbi; britan-trinidadlik shoir R.Robinson va pokiston-britaniyalik shoira M.Alvi singari ijodkorlarning o'rni alohida ahamiyat egaligini ta'kidlash joiz. Yuqorida ta'kid etilgan har bir shoir "o'zining madaniy identifikatsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan noyob poetikani yaratadi hamda u yoki bu darajada zamonaviy britan she'riyatiga xos umumiy mavzularni rivojlantiradi".

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yoki eng yangi Britaniya she'riyatiga nazar tashlansa, unda modernizm tajribasiga tayangan she'riyatga duch kelamiz. Bu she'riyatning vakillari sifatida T.S.Eliot, S.Spender, W.H.Auden va boshqalarni e'tirof etishimiz mumkin. Ular 1950-1960-yillar she'riy manzarasining modernistik an'analarni rivojlantirganlar [1,848]. P.Larkin va "The Movement" nomli she'riy birlashma konservativ-modernistik yondashuvni ifodalaydi. Ted Hughes (ilk va yetuk davri) hamda uning atrofidagi shoirlar esa ko'proq radikal yo'nalishni namoyon etib, qisman ekspressionizm va mifopoetikaga moyillik ko'rsatadi. Seamus Heaney esa irland she'riyati an'analarni qayta tiklab, rivojlantiradi va zamonaviylashtiradi [2,224].

XX asrning 60-70-yillarida Britaniya she'riyatining qayta uyg'onish davri bo'ldi. Bu davrda British Poetry Revival deb ataluvchi guruh shakllandi. Bu guruh ma'lum ma'noda The Movement oqimining konservativ poetikasiga radikal javob sifatida qayd etish mumkin. Guruhda B.Kobbing, R.Fisher, P.Finch, L.Harvud va boshqalar amerikalik shoirlar tajribasiga tayangan holda E.Paund, U.Karlos U.Ch.Olson singari shoirlar ijod etishdi.

XX asrning keyingi o'n yilliklarida Shimoliy Irlandiya she'riyati ham yuksalishda davom etdi. Bu yuksalishni esa P.Malduun, M.Longli, F.Ormsbi, S.Parker kabilar ijodi misolida anglashimiz mumkin bo'ladi. Bundan tashqari R.S.Tomas, D.Paterson, J.Agard,

D.Harsent, K.E.Daffi, S.Armitij, J.Shapkot, E.Moushon singari shoirlar ijodini ham qayd etish lozim.

**Muhokama va natijalar.** XX asr she'riyati tabiat hodisalariga, xususan, bahor fasliga bo'lgan klassik munosabatni tubdan o'zgartirdi. Agar klassik adabiyotda bahor mutloq go'zallik va uyg'onish ramzi bo'lgan bo'lsa, XX asrning murakkab ijtimoiy-siyosiy iqlimi ushbu motivga yangi semantik qirralar – shafqatsizlik, og'riqli uyg'onish va milliy ozodlik kabi ma'nolarni yukladi.

*Весенним солнцем это утро пьяно,  
И на террасе запах роз слышной,  
А небо ярче синего фаянса.  
Тетрадь в обложке мягкого сафьяна;  
Читаю в ней элегии и стансы,  
Написанные бабушке моей.  
Дорогу вижу до ворот, и тумбы  
Белеют четко в изумрудном дерне [3,32].*

(She'ning erkin tarjimasi (tarjima o'zimizniki): *Bu tong bahor quyoshidan mastdir, sarmast, // Terrasada gullar bo'yi kelar yanada. // Osmon — moviy fayansdan ham yorqinroq bu past. // Yumshoq safyan muqovali qadimiy daftar; // O'qiyman men unda elegiya, stans — // Buvimga bitilgan bitiklar qadar. // Darvozaga borar yo'l ko'rinur ravshan, // Zumrad maysazorda oqarar tumba...*)

Anna Axmatovaning “Обман” (Yolg'on) sarlavhasi ostida yaratilgan ushbu she'ri bahor motivining poetik semantikasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shoira she'ning ilk satrlaridayoq oddiy fizik hodisadan ruhiy-feziologik holatni tasvirlashga muvaffaq bo'ladi. Lirik qahramon uchun bahorning ilk quyoshi haroratidan ko'ra, uning yorug'lik intensivligi muhimroq. Chunki mazkur satrda quyosh nuridan (mast) tushunchasi mavjudki, undan bahra olmoqni keltirib chiqaradi. Demak, lirik qahramon quyosh nuri sabab undan energiya oladi, tuyinadi. Natijada qishki yorug'lik tanqisligidan keyin (vitamin D va serotonin yetishmovchiligi fonida) bahoriy quyoshning lirik qahramon ruhiyatidaga ta'siri “mastlik” sifatida subyektiv idrok etiladi.

Anna Axmatovaning mazkur she'ridagi matnga diqqat qilinsa, unda sensorlik ko'rinishi hisoblangan olfaktor xususiyati ham joy olganligiga duch kelish mumkin. Ya'ni hid bilish jarayonini to'g'ridan-to'g'ri misralarga joylashtiradi. Natijada atirgullarning hidlari taraladi. Aslida harorat ko'tarilishi bilan havoning molekulyar harakati tezlashadi, bu esa hidlarning tarqalishini kuchaytiradi. Demak, shoira mazkur holatni aniq anglaydi. Shu bois ham dastlab quyosh nurining huzurbaxsh energiyasi borasida so'z yuritib, keyinchalik atirgullar hidi borasidagi qarashlarini baxshida etadi. Lirik qahramon uchun xronotop sifatida terrasa (uy va tashqi olam o'rtasidagi chegara) ta'kiidlab o'tilganki, bu makonni bemalol bahoriy hidlarni baxsh etuvchi makon hamda muattar bahor havosiga

o‘tish indikatorini deya olamiz. Aslida terrasa yarim ochiq ayvon sanaladi. Demak bu ayvon qishki turg‘un va quruq havodan bahoriy haroratga o‘tish maskani bo‘lib xizmat qiladi.

Matnda “А небо ярче синего фаянса” misrasi joy olgan. Ya’ni shoira osmonning rangini moddiyilashtiradi. Bahor osmonining bunday tiniqligi atmosferadagi chang zarralarining yomg‘ir bilan yuvilishi va havo massalarining almashinuvi natijasidir. Shu bilan bir qatorda “zumrad maysazor” metaforasi ham o‘rin egallaganki, bu metafora o‘zida ranglar kontrastini ifoda etib, bahoriy yorug‘likning qanchalik tik va tiniq ekanligini ko‘rsatadi. Satrlardagi “moviy osmon” atmosfera oprikasi bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, “zumrad maysazor” vizual kontrastni yuzaga keltiradi. Shu bois ham she’rni “Обман” deya nomlaydi. Aslida, Anna Axmatova uchun bahor – stixiya emas, balki madaniy-estetik ko‘rinish. Chunki u har bir elementni (quyosh nuri, hid, rang) o‘z o‘rnida qo‘llaydi. A.Axmatova uchun bahor nur bahori. Unda sovuq yoki issiqdan ko‘ra yorqinlik birlamchi o‘ringa chiqadi. Xullas, Anna Axmatova mazkur she’rida “akmeistik iqlim” (aniqlik va moddiylik iqlimi) tasvirini ochib berishga harakat qilgan. Uning asosi sifatida nur talqin etilgan.

“Nur va rang mohiyatiga oid ko‘plab faylasuflarning mulohazalari mavjud. Nur absolyut va “hissiy”dir. “Hissiy sifatida nur barcha ranglar mavjudligining asosi bo‘ladi”. Avtraliyalik tadqiqotchi A.Xanzen-Lyove yorug‘lik (nur) xususiyatiga ko‘ra yorug‘likning iyerarxik kategoriyasini topdi: kosmogonik ibtidoiy nur (“yaratuvchi nur”); yerdagi nur (“yaratilgan nur”); psixik-pnevmatik nur (tashuvchilari “ruh”) [12,816]. Shuningdek, kichik nur (tellurik nur) va barcha turdagi ruhiy (ma’rifiy) nurni keltiradi. Aslida tabiiy jihatlariga asoslanib yuzaga kelgan (ma’naviy) nur tarixiy hodisa bo‘lib, unga munosabat turli davrlarda turli hodisalarni ifodalab kelgan. Anna Axmatova esa tabiiy holatdagi nur tushunchasini misralarga joylab, undan klimatologik holatni mahorat darajasida tasvirlaydi.

A.Axmatova she’riyati yuzasidan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Biroq bu tadqiqotlarning birortasida ham A.Axmatova ijodi, uning she’riyati klimatologik hidisa nuqtai nazaridan tadqiq etilmaydi.

*Bahorni sog‘indim, bahorni...  
Ko‘rganda yerlar, olamlar to‘la qorni.  
Qor...qor...  
Zaharli ninalar kabi  
Ko‘zlarga qarab oqar...  
Qaydasan, qaydasan  
Latif siynalar kabi  
Dillarga singgan bahor?!  
Dala-tuz,  
Ekin-tekin...  
G‘amgin-g‘amgin*

*So‘la boshladi.*

*Sarg‘aygan yaproq,*

*Bo‘yanib tuproq*

*O‘la boshladi, o‘la boshladi... [10,112]*

Abdulhamid Cho‘lponning “Bahorni sog‘indim” nomli mazkur she‘ri 1926-yilda yaratilgan bo‘lib, unda milliy erk va umid g‘oyasi ifodalangan. Asosiysi, bu tushunchalar she‘r matnida “krioterapevtik (sovuq) pessimizm” va “gelikosentrik (quyoshli) optimizm” kurashi sifatida talqin qilingan. Cho‘lpon matnda qish va qorni an‘anaviy oqli yoki tinchlik ramzi sifatida emas, jismoniy og‘riq beruvchi stixiya sifatida tasvirlaydi. Zaharli ninalar kabi ko‘zlarga qarab oqishida iqlimiy holatning inson a‘zolariga (sezgi organlariga) tajavvuzi safatida idrok etish mumkin. Chunki qor matnda mustamlakachilik va turg‘unlik ramzi bo‘lib, u muzlatuvchi quvvat sifatida e‘tirof etiladi. Cho‘lpon to‘g‘ri ta‘kidlagandek, u insonning ko‘rish qobiliyatini cheklaydi. Shu bois ham u sanchuvchi va zaharlovchi xususiyatga ega.

Shoir “latif siynalar kabi dillarga singgan bahor” sifatida tasvirlar ekan, u bahorni issiqlik (termil energiya) bilan bog‘laydi. Bahorning dilga singishi esa insonning ichki mikroklimatini tashqi mikroklimat bilan uyg‘unlashtiradi. Shu bilan bir qatorda she‘rda ekologik degradatsiya (tanazzul) tasvirlanganki, bu tasvir sarg‘aygan yaproq, bo‘yanib o‘la boshlashida o‘z aksini topadi. Aslida tuproqning o‘lishi iqlimiy nuqtayi nazardan unumdorligining yo‘qolishidir. Demak, Cho‘lpon tabiatning biologik o‘limi orqali millatning ijtimoiy turg‘unligini ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi.

She‘r matnidan joy olgan eng qiziqarli holat termodinamik sikl ifodasida o‘z aksini topadi. Misralardan joy olgan “O‘chib-so‘nish” va “Yana yonish” fikrimizga misoldir. Demak, shoir iqlimiy fasllar almashinuvini energiya saqlanish qonuni darajasida tahlil qiladi. Bu iqlimiy regeneratsiya (qayta tiklanish) nazariyasidir. Darhaqiqat, qish o‘lim emas, energiyaning vaqtincha passiv holatga o‘tishidir. Chunki unda yana yonish bor. Bu yonish esa lolalarning yonishi bilan belgilangan. Lolalarning yonishi iqlimiy haroratning ko‘tarilishi va hayotiy energiyaning maksimal nuqtaga yetishini anglatadi. Xullas, Cho‘lpon she‘riyatida bahor – ijtimoiy-siyosiy toifadir. Shoir uchun bahor mutloq najotdir.

Cho‘lpon she‘riyati ham o‘zbek adabiyotshunosligiga eng ko‘p o‘rganilgan tadqiqotlardan sanaladi. Biroq bu tadqiqotlarda klimatologik hodisalar va ularning elementlari tadqiqot doirasiga olib chiqilmaydi.

*Spring teaches hope after the cold,*

*New beginnings, stories untold.*

*Every bloom, every chirping note,*

*Reminds us to stay afloat.*

*Summer’s zeal, passion’s peak,*

*Chasing dreams, the future we seek.*

*Each sunbeam, every twilight haze,*

*Illuminates life's amazing maze.*

*Autumn shows, even in decline,*

*Beauty in change, brilliantly fine.*

*Winter's hush, a pause, a rest,*

*Prepares for another vibrant fest.*

(She'ning erkin tarjiması (tarjima o'zimizniki): *Bahor o'rgatar umidni bizga, // Qahraton ortidan kelib malhamdek. // Yangi boshlanishlar, sirlar-u o'ylar, // Bitilmagan qissa, aytilmagan gap. // Har bir ochilgan gul, qushlar xonishi, Eslatar: Taslim bo'lma, yashamoq kerak! // Yozning jo'shqinligi — ehtiros cho'qqi, // Orzular ortidan quvamiz tinmay. // Har bir quyosh nuri, har oqshom gubor, // Hayot labirintin yoritar sim-sim. // Kuz esa ko'rsatur: hatto so'lishda, // Go'zallik yashirin yangilanishda. // Qishning sukunati — tanaffus, orom, // Yangi bir bayramga tayyorgarlik bu.*)

Ingliz shoirlaridan biri hisoblangan Robert Frosning "Fasllar almashinuvi" nomli mazkur she'rida fasllarning inson ruhiyati va hayotiy falsafasi bilan bog'liqligini sodda, ammo teran obrazlar orqali ifodalaydi. Aslida fasllar almashinuvi she'rida inson psixologiyasining iqlimiy indikatoridir. "Hope after the cold" tushunchasini sovuqdan keyingi umid sifatida talqin etish mumkin bo'ladi. Matnda sovuq (winter) tushkunlikni ifodalagan bo'lsa, bahor (spring) qayta tiklanishni ifodalaydi. Demak, matndan joy olgan tushunchalarda regeneratsiya holati qayd etiladi. Iqlimiy nuqtayi nazardan esa haroratning ko'tarilishi organimzdagi hayotiy energiyani faollashtiradi. Robert Fros mana shu energiya orqali inson ruhiyatini ochishga musharraf bo'ladi. Shoir mazkur she'rida nafaqat bahorni qayd etadi, balki yoz fasli to'g'risida ham o'z qarashlari bilan o'rtoqlashadi. Uning fikricha yoz insonga shijoat beradi (summer's zeal). Quyosh radiatsiyasining eng yuqori nuqtasi (insolyatsiya) lirik qahramonning orzular ortidan quvishga chorlaydi. Shoir insonning umri (eng faol davri) va yozni eng yuqori bioklimatik faollik davri sifatida e'tirof etadi.

Robert Fros uchun kuz entropiya sanalib, u estetik transformatsiyani hosil qiladi. Chunki "Beauty in change" o'zgarishdagi go'zallikdir. Kuzgi iqlimiy pasayish, ya'ni haroratning pasayishi, barglar sarg'ayishi aslida tabiatning o'limi emas, shakily o'zgarishdir. Shoir "decline" (pasayish) tushunchasini qo'llab, iqlimiy degradatsiyani estetik zavqqa aylantiradi. Qish esa klimatologik muvozanatni (gemeostaz) beradi. Shoir qishdan "Winter's hush" qish sukunatini anglaydi. Uning talqinicha bu kabu sukunat tabiatning germinatsiyasi hisoblanib, yangi urug'lanish, yangi hayotga yo'l ochadi. Ya'ni yangilik oldidan dam olishga, hordiq chiqarishga o'xshaydi. Uningcha, qishki sukunat shunchaki sovuq emas, balki kelgusi "vibrant fest" shiddatli bayramga tayyorgarlikdir. Xullas, R.Fros talqinidagi fasllar almashinuvi tabiiy jarayon bo'lib, unson ruhiyati, uning borlig'i bilan bog'lanadi.

R.Fros ijodi, uning she'riyati bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud. Biroq bu tadqiqotlarda klimatologik hodisalarga bo'lgan munosabat aniqlanmaydi.

**Xulosa.** Xullas, XX asr o‘zbek, rus va ingliz she‘riyatidagi bahor motivi klassik adabiyotdagi an‘anaviy uyg‘onish va go‘zallik doirasidan chiqib, ko‘p qatlamli, murakkab semantik tizimga aylangan. XX asr she‘riyatida bahor monosemantik obrazdan polisemantik tizimga o‘tadi. U o‘zbek adabiyotida ijtimoiy-ideologik kategoriya, rus adabiyotida psixofiziologik va energetik model, ingliz adabiyotida klimatologik faktordir. Bahor shunchaki fasl emas, balki iqlim, ruhiyat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab dialektik tizim. U har bir milliy adabiyotda o‘ziga xos semantik yuklama kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. [Английская поэзия в русских переводах. XX век.](#) – Москва: Радуга, 1984. – 848 с.
2. [Английская абсурдная поэзия Антология.](#) СПб., Симпозиум, 2007.- 224 с.
3. Анна Ахматова. Стихотворения и поэмы. – Ленинград: Советский писатель, 1976. – С. 32.
4. А. Блюм. Запрещённые книги русских писателей и литературоведов. 1917-1991.
5. [Баевский В. С. История русской литературы XX века.](#) – Москва: Языки русской культуры, 1999.
6. Бранская Е. В., Панфилова М. И. Модерн, модернизм, постмодернизм (к определению понятий) // Инновационная наука: Журнал. – 2015. – № 3. – С. 264-266.
7. [Мотылёва Т. Л.](#) Русская литература. Мировое значение русской литературы // Литературный энциклопедический словарь / под ред. В. М. Кожевникова, [П. А. Николаева.](#) – Москва: [Советская энциклопедия](#), 1987.
8. [История русской литературы: в 4 т., 1980-1983](#), т. 1, с. 4.
9. [Иванов-Разумник Р. В.](#) История русской общественной мысли: В 3 т. Т. 3 / Подгот. текста, послесл. и примеч. И. Е. Задорожнюка и Э. Г. Лаврик. – Москва: Республика; ТЕРРА, 1997. – 368 с.
10. Cho‘lpon A. She‘rlar, hikoyalar, she‘rlar va nasriy tarjimalar. – Toshkent: Zabarjad-mediya, 2024. – B. 112.
11. Эшонова З. Чўлпон шеърятининг хусусиятлари (20 йиллар ижоди мисолида). Филол. фанлари ном...дисс. – Тошкент, 1991.
12. Ханзен-Лёве А. Русский символизм. Система поэтических мотивов. Мифопоэтический символизм. Космическая символика / Пер. с нем. М. Ю. Некрасова – СПб., Академический проект, 2003 – 816 с.